



UDK: 1/14.3.378

Xurshid SALAMOV,
Renessans ta'lim universiteti tadqiqotchisi

Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD J.Jo'raqulov taqrizi asosida

YOSHLAR MA'NAVIIY-MAFKURAVIIY KAMOLOTIDA BUYUK AJDODLARIMIZ DINIY VA DUNYOVIY QARASHLARINING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada IX-XII va XIV asr oxiri va XV asr O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy-ma'naviy, ma'rifiy hayotida tub burilishlar, Temuriylar davridagi yuksalgan ilm va fanni yuksalishi, Mirzo Ulug'bekni fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi, Alisher Navoiyning asarlarida odob-axloq, ma'naviy yetuklik kabi sifatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, ma'naviyat, ma'rifat, renessans, insonparvarlik, tenglik, adolat, ma'rifat.

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ И МИРСКИХ ВЗГЛЯДОВ НАШИХ ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ В ДУХОВНО-МИРОВОЗРЕНЧЕСКОЙ ЗРЕЛОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются коренные изменения в социально-экономической, политической, культурно-духовной, просветительской жизни народов Средней Азии IX-XII и в конце XIV и XV веках, подъем передовых знаний и науки в период Тимуридов. В произведениях Алишера Навои анализируются наука, культура Мирзо Улугбека и вклад Алишера Навои в развитие благосостояния, таких качеств, как нравственность и духовная зрелость.

Ключевые слова: Патриотизм, духовность, просвещение, ренессанс, гуманность, равенство, справедливость, просвещение.

THE ROLE OF RELIGIOUS AND SECULAR VIEWS OF OUR GREAT ANCESTORS IN THE SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL MATURITY OF YOUTH

Annotation

This article examines the fundamental changes in the socio-economic, political, cultural, spiritual, and educational life of the peoples of Central Asia in the late 9th and 12th, 14th and 15th centuries, the rise of advanced knowledge and science during the Timurid period. The works of Alisher Navoi analyze science, the culture of Mirzo Ulugbek, and Alisher Navoi's contribution to the development of well-being, such qualities as morality and spiritual maturity.

Key words: Patriotism, spirituality, enlightenment, renaissance, humanity, equality, justice, enlightenment.

Kirish. O'zbekiston o'zining tarixida buyuk madaniy yuksalishlar uyg'unligini shakllantirgan, ular vositasida mutloqo yangicha sivilizatsiyalar, yangicha madaniy-ma'naviy qadriyatlar yaratgan o'lkadir. O'zbek xalqi o'zining o'tmish tarixida bir necha bor Uyg'onish davrlarini shakllantira olgan hududning qadimiy xalqlaridan biridir. Bunday Uyg'onish davrlarini yuzaga chiqarishda ajdodlarimizning diniy va dunyoviy qadriyatlari, urf-odatlar, madaniyati va bu o'lkada ilmu-urfon uchun yaratilgan shart-sharoitlar asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois bu o'lkadan Abu Nasr Farobiy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Burxoniddin Marg'iloniy, Al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi Renessansning asosini qo'yib bergan ulug' allomalar yetishib chiqqan.

Islomiy qadriyatlarni, Qur'oni Karim, Muhammad payg'ambarimizning Hadislarini o'rganish asnosida ularda, milliy ma'naviyatimiz uchun juda ham muhim bo'lgan birona ham masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'rishimiz mumkin. Ulardagi odob-axloq, halollik va poklik, imon-e'tiqod va vijdod, mehr-oqibat, og'ir sinovlarga bardoshli bo'lish, bir-birini moddiy-ma'naviy, ruhiy qo'llab-quvvatlash, hamdard, hamnafas, hamfikir, yelkadosh bo'lish, tinchlik osudalikni saqlash, mehnat qilib, birovlarining haqiga xiyonat qilmasdan, poraxo'rlik qilmasdan halol pokiza yashash haqidagi va boshqa g'oyalar, ta'limotlar umuminsoniyatga bevosita daxldordir.

Biz o'z millatimizni, milliy urf-odatlarimiz va ma'naviyatimizni islom dini ta'limotisiz tasavvur eta olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimiz, ongimiz, qalbimiz, jismu jonimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz o'zligimizni yo'qotamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkentda ish boshlagan Islom Hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashi majlisining ochilish marosimida: Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy

hayotini, dinu diyonatimizni islom dinisiz tasavvur eta olmasligimizni, qolaversa, islom dini tinchlikka, ma'rifatga va ma'naviy boylikka da'vat etadigan din ekanligini ta'kidlab, "Shu ma'noda bizning buyuk ajdodlarimiz - Islom dunyosining mutafakkirlari yutuqlari, ularning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo'shgan mislsiz hissalarini o'rganish va ommalashtirish o'ta muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston islomiy madaniyat noyob merosiga ega va Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Imom al-Moturidiy va boshqa buyuk arboblarning nomlari nafaqat musulmon mamlakatlari va butun dunyoga yaxshi tanish"[1], degan chuqur ma'noli so'zlari fikrimizga yorqin misol bo'ladi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy e'tibor nimalarga qaratilayotgani haqida gapirib, quyidagilarni bayon etdi: "Yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy e'tibor 5 ta ustuvor yo'nalishga qaratilmoqda. Bular: sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog'liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlash. Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta'limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham - faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir"[2].

Yurtboshimizning ushbu takliflari mohiyatidan anglash mumkinki, o'zlikni anglash, yoshlar ma'naviy-mafkuraviy kamolotida dunyoviy va diniy qadriyatlarning namoyon bo'lishi, ilm-ma'rifat, uchinchi Renessansga xos dunyoqarash bilan, say-harakat bilan yashashga har bir yoshni da'vat etadi.

Bizga ma'lumki, IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda vujudga kelgan mustaqil davlatlar xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning o'sishi nafaqat tabiiy, texnikaviy balki ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham taraqqiy etishiga sabab bo'ldi. Ko'pgina hukmdorlar o'z saroylarida faylasuflar,

tarixchilar, shoirlar va yozuvchilarni, musiqashunoslar va munajjimlarni, diniy ulamolar, shayxlar, imomlar va huquqshunoslarni bir so'z bilan aytganda barcha donishmandlarni to'plab, ilm ahllariga muruvvat ko'rsatib homiylik qilganliklari, o'sha davrdagi ilm-fan va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyotiga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.

Jamiyat taraqqiyoti o'rtaga qo'yan obyektiv talab va ehtiyojlar asosida hamda yaratib berilgan qulay shart-sharoit va imkoniyatlar tufayli IX-XII asrlarda Turkistonda ilm-fan va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat gurrakib rivojlangan, Uyg'onish jarayoni ro'y bergan.

Ana shu davrlarda Sharq va G'arbda o'rta asr matematika ilmi va maktabining asoschilari, "Ikkinchi muallim" yoki "Sharq Aristoteli" unvoniga sazovor bo'lgan buyuk allomalar, tibbiyot ilmining eng yuqori cho'qqisi "Shayx ul-Rais" yoki "Olimlar podshohi", Sharqninggina emas, balki butun insoniyatning ham faxr-iftihori bo'lgan qomusiy aql egalari, islom dini, madaniyati va fanida, Hadis ilmining buyuk shayxlari behisob darajada ko'p yetishdilar.

IX-XII asrlarda Sharqda Turon Turkistonda ilk bor ro'y bergan Uyg'onish haqida akademik M.Xayrullayev shunday yozgan: « IX-XII asrlarga kelib... ilmiy madaniy yuksalish Bag'doddan Movarounnahr, Xuroson yerlariga ko'chdi, bu davr turli ilm, adabiyot sohasida buyuk siymolarni yetishtirdi. Bu madaniy to'liq Movarounnahrni butun islom dunyosida ilmiy madaniy markaz sifatida nom qozonishga olib keldi. Bu davrni Markaziy Osiyo Uyg'onish davri-Renesansi deb, atamoq mumkin. Bu davr madaniyat yutuqlari G'arbiy Yevropa mamlakatlari madaniyati rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. U yerdagi XV-XVI asr renesansi madaniy yuksalishida muhim omillardan biri bo'ldi»[3].

Dastlabki Uyg'onish davrida Movarounnahr va Xurosondan, ayniqsa, Xorazm va Buxorodan yetishib chiqqan buyuk olimlar Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra singari yirik shaharlarga borib o'zlarining yorqin va betakror ijodlari, bebaho aql-idrok va tafakkurlari bilan jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shganlar. IX asrda Bag'dodda tashkil etilgan "Baytul-hikma" (Donishmandlar uyi)da nomlari dunyoga mashhur alloma va mutafakkirlarimiz ustozlik qilganlar. Ular ijodida Sharq va G'arb madaniyati, ma'rifati yutuqlari, eng ilg'or g'oya va ta'limotlar sintezlashgan. Bu davrda yurtimiz jahon sivilizatsiyasining markazlaridan hisoblangan.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda yetishib chiqqan buyuk hadishilar, tariqatchilar, fiqhchilar, diniy va dunyoviy ilm daholari, faylasuflar, tarixchilar, me'morlar, bastakorlar, hattotlar dunyo ilm fani va madaniyati taraqqiyotida peshqadamlik qilganlar.

IX asr hadis ilmi rivojida oltin davr hisoblanadi. Muhaddislar Ichida eng mashhuri, islom olamining iftihori Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) dir. Yaratgan Imom al-Buxoriyga behad keng va ziyrak qalb, kuvhli xotira hamda o'tkir zehn ato etgan. 600 ming hadisni yod bilish uchun qanday aql va bilim kerakligini ko'z oldimizga keltirsak hayronu lol bo'lib qolamiz.

"Al-jomi' as-Sahih-uzoq yillar davomida olib borilgan mashaqqatli va o'ta mas'uliyatli mehnatning buyuk samarasi hisoblanadi. Bu haqda Imom al-Buxoriyning o'zlari: "Men Al-Jome' as-Sahihni" olti yuz ming hadisdan (sahihlaridan saralab olib) o'n olti yilda tasnif etdim va uni o'zim bilan Olloh taolo o'rtasidagi (ahdu paymonga vafo qilg'onimning)dalili qildim"[4].

Imom Buxoriy o'zlarini yuqoridagi asarlarida 600 ming hadisdan faqat 7275 tasigina Payg'ambarimiz muborak so'zlari, diniy va dunyoviy ko'rsatmalari, hikmatlari, axloqiy o'g'itlari ekanligini shak-shubhasiz to'g'ri va rost, gumondan holi bo'lganlarini ajratib olib saqlab qolganlar.

Asarda ifoda etilgan masalalar nafaqat o'tmish uchun, ayni paytda hozirgi davr va kelajak uchun ham ahamiyatlidir.

"Al-Adab al-mufrat" (Adab durdonalari) Imom al-Buxoriyning axloq va odob masalalariga bag'shlangan eng nodir asarlaridan hisoblanadi. Asarda "Onani rozi qilish haqida", "Ota onaga muloyim gapirish haqida", "Qo'shning haqi to'g'risida", "Yetimlarga marhamatli bo'lish haqida", "Yaxshi xulqlik bo'lish haqida", "Baxillik haqida", "Molni tejash va ko'paytirish haqida", "Takabburlik haqida", "Hayo, uyatchanlik haqida" deb nomlangan boblaridan ham bilib olish mumkin.

Asarning Ota-onani mukofotlash bobida: "Bola ota-onasiga har qancha yaxshilik qilsa ham, ularning yaxshiligini qaytara olmaydi. Faqat, uni qul holda topsayu, sotib olib, ozod qilsa, bundan mustasno",-dedilar"[5].

Agar mazkur kitobning barcha hadislarini sinchiklab o'qib o'ganilsa bu hadislar insonni, ayniqsa yoshlarni madaniy-ma'naviykamolotga, ma'rifatli bo'lishga da'vat etilayotgani ravshan bo'ladi.

XIV asr oxiri va XV asr O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy-ma'naviy, ma'rifiy hayotida tub burilish, gullab-yashnagan davr, ikkinchi Uyg'onish davri bo'lib tarixga muhrlandi[6].

Shavkat Mirziyoyev saylovoldi dasturi yuzasidan ma'ruza qilib samarqandni milliy davlatchiligimizdagi o'rni haqida to'xtalib shunday degandi: "Jahon ilm-fanida "G'arbda - Rim, Sharqda - Samarqand" degan ibora bejiz paydo bo'lmagan. Ayniqsa buyuk Sohibqiron Amir Temur bobimiz davrida Samarqandning shuhrati butun dunyoga taraldi"[7].

Xerman Vamberi Samarqand o'rta asr dunyosining asl madaniy-ma'naviy va savdo maskanlaridan biriga aylanganligini quyidagicha ifodalagan: «Samarqandning butun Osiyo savdosida mol ombori o'rni olganini fahmlash juda oson deb o'ylaymiz. Bu yerda Hindistondan juda ko'p attorlik va bo'yoq tijorat karvonlari kelib turardi. Xitoy bu yerga ipak gazlamalari, chinni kosalar, qadahlar, mushk, qimmatbaho toshlar yuborardi. Mamlakatning shimol tarafidan noyob po'stinlar kelar edi. Ushbu turli iqlimlarning mollari Samarqand bozorlarida toytoy bog'lanib, Osiyoning eng katta shaharlariga va Buyuk Ipak yo'li orqali G'arbiy Yevropaga jo'natilar edi. Nihoyatda qo'rqinchli zamonlar bo'lishiga qaramay, Temut hokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo juda jonli va xavfsiz edi. Biz qayta-qayta zikr etgan Ispaniya elchilari bunga eng ishonchli shohidirlar»[8].

Har bir zamon o'zining ulug' siymolarini yaratgan va yaratadi. XIV-XV asrlarda bir qancha buyuk olimlar, nomi dunyoga mashhur ulug' shoir va mutafakkirlarni yetishtirdi. Alisher Navoiy ana shunday buyuk zotlardan biri hisoblanadi.

Navoiy insoniyat o'tmish madaniy-ma'naviy merosiga, diniy-axloqiy, falsafiy ta'limotlariga hech qachon befarq bo'lmagan. U bashariyat mutafakkirlari tomonidan turli davrlar va tillarda yaratilgan barcha tarixiy, badiiy, falsafiy, diniy, axloqiy mazmundagi kitoblarni o'rgangan.

Alisher Navoiy asarlari jamiki odamizotga mehnat va halollikdan, do'stlik va hamkorlikdan, rostgo'ylik, soflik va samimiylikdan muhim hayotiy saboq bermoqda, Buning ustiga xaromxo'rlik va adolatsizlikni, o'zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayronagarchiliklarga sabab bo'ladigan urushlarni Keskin qoralagan. Ana shu ma'noda olganda Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham egadir.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan shuni ayta olamizki, yoshlarda ijtimoiy darajadagi o'zlikni anglash muhim vazifa bo'lmog'i lozim. Milliy ma'naviyatimiz va ma'rifatimiz rivojida islom ta'limoti, islom dinining ilohiy manbalari-Qur'oni Karim va Hadisi Shariflar qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatganligi, ushbu manbalar yo'l-yoriqlari, vazifalarini o'tganligi haqiqatdir. Alloh taalo Qur'oni Karimni arablarga in'om etgan bo'lsada, bu muqaddas ilohiy Kalomning ilmiy-nazariy, amaliy-dunyoviy talqinini, sharhini vatandoshlarimiz bo'lgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy singari buyuk islomshunoslarga ravo ko'rdi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Islom dinini muhofaza qilishga chaqirdi. <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-37689456>
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag
3. Ma'naviyat yulduzlari. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999, 387-bet.

4. Imom al-Buxoriy-muhaddislar sultoni. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 1998, 56-57 betlar.
5. Al-adab al-Mufrat.T., “Sharq”, 2008, 72-bet.
6. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2021, 122-bet.
7. O‘zbekiston respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashuvidagi nutqi. 2021-yil 24-sentyabr.
8. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990, 55 bet.